

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**X.А.Абдурасулов**

Экономическая история Туркестана в "Большой игре" Питера Хопкирка .....	338
<b>Sh.S.Shodiyeva</b>	
Afg'oniston matbuotining Buxoro amirligi hududiga tarqalishi tarixiga doir.....	343
<b>Sh.M.Abdusatorov</b>	
Gastroturizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy masalalari.....	348
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
XX asrning 20-yillarda Farg'ona viloyatida ta'lif tizimi (Farg'ona viloyat davlat arxividagi hujjatlar misolida) .....	353
<b>G'.A.Raxmonov</b>	
Farg'ona vodiysida suv xavfsizligi borasidagi yondashuvlar .....	358
<b>M.Y.Umarova</b>	
Temuriy Malika Gavharshodbegim tug'ilgan oila va uning Amir Temur davridagi hayoti .....	361
<b>S.B.Yuldashev</b>	
The Faragina – a regular military structure in the Abbasid's army .....	366
<b>X.X.Mamajonov</b>	
Turk tarixshunosligida Amir Temur tarixining o'rganilishi va rivojlanish bosqichlari.....	373

---

**ADABIYOTSHUNOSLIK****D.Sh.Kodirova**

O'zbek tili konchilik terminlarining terminografiya talablari asosida terminologik lug'atlarga kiritilishi .....	377
<b>N.T.Zaylobova</b>	
Muloqot xulqining oliv ko'rinishi .....	384
<b>D.O.Xamidova</b>	
Luqmon Bo'rixonning "jaziramadagi odamlar" romanida ruhiyat .....	389
<b>A.N.Nasirov</b>	
Xarakter evolyutsiyasining ruhiy-psixologik asosi .....	396

---

**TILSHUNOSLIK****Ф.Ш.Алимов, Р.А.Фахрутдинова**

Лингвистические факторы формирования письменной речи в условиях цифровизации.....	402
-----------------------------------------------------------------------------------	-----

**Талантбек кызы Альбина, К.С.Шакиров, Э.И.Ибрагимова**

Формирование информационно-коммуникационные готовности у педагогов дошкольного образования в условиях непрерывного профессионального образования .....	408
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----

**O.Q.Sobirov, Sh.I.Shokirov**

Ingliz tilida qurilish terminlarini semantik xususiyatlari.....	417
-----------------------------------------------------------------	-----

**D.A.Ganiyeva**

To'liqsiz va bog'lama fe'llarda sinkretizm va polifunktionallik .....	422
-----------------------------------------------------------------------	-----

**A.M.Mamarasulov**

Leksik sistemaga onomasiologik yondashuv.....	426
-----------------------------------------------	-----

**N.Xamidov**

Turli tizimli tillardagi antroponimlarda erkalash-kichraytirish ma'nolarining ifodalanishi .....	432
--------------------------------------------------------------------------------------------------	-----

**C.Э.Саидова**

Мулоҳизаҳо оиди лингвистикаи ареалӣ дар мисоли шеваҳои аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	437
--------------------------------------------------------------------------------------	-----

**Г.М.Мансурова**

Проблемы понимания на слух у студентов технических вузов .....	441
----------------------------------------------------------------	-----

**Ф.А.Темирова**

Методологический анализ подходов к составлению идиоматического словаря на примере HSG: сравнение, особенности и рекомендации .....	445
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----

**Ш.М.Султонова, Г.Ф.Нишонова**

Теоретические предпосылки изучения антропонимов в переводческом аспекте.....	449
------------------------------------------------------------------------------	-----

## LEKSIK SISTEMAGA ONOMASIOLOGIK YONDASUV

### ОНОМАСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

### ONOMASIOLOGICAL APPROACH TO THE LEXICAL SYSTEM

**Mamarasulov Akmaljon Mamatojiyevich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

*Maqolada narsa-buyumlarga nom qo'yish borasida ilmiy qarashlar borasida olib borilgan tilshunoslarning fikrlari o'rganilan. Tildagi barcha so'zlar ma'noli bo'lsa-da, lekin ular ma'noning eng umumiy xususiyatiga ko'ra ham o'zaro farqlanishi yoritilgan. Onomasiologiyada narsa va hodisalarini yoki tushunchalarini nomlash asoslari o'rganiladi; etimologiyada so'zlarning kelib chiqishi aniqlanadi; frazeologiyada tilning lug'at boyligidagi ko'chma ma'noli turg'un birikmalar-frazemalar xususida bahs yuritiladi.*

#### **Аннотация**

*В статье рассматриваются мнения лингвистов относительно научных взглядов на наименование вещей. Хотя все слова в языке имеют значение, поясняется, что они отличаются друг от друга по самому общему признаку значения. В ономасиологии изучаются основы наименования вещей и событий или понятий; этимология определяет происхождение слов; Во фразеологии ведутся споры об устойчивых сочетаниях-словосочетаниях в словарном запасе языка.*

#### **Abstract**

*The article examines the opinions of linguists regarding the scientific views on naming things. Although all the words in the language have meaning, it is explained that they differ from each other according to the most general feature of the meaning. In onomasiology, the basics of naming things and events or concepts are studied; etymology determines the origin of words; In phraseology, there is a debate about stable combinations-phrases in the vocabulary of the language.*

**Kalit so'zlar:** onomasiologiya, leksik tizim, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, atoqli va turdosh ot, yondashuv, nominativ funksiya, ega, narsa-hodisa, xizmat qiladi, ifodalovchi funksiya, tushuncha.

**Ключевые слова:** ономасиология, лексическая система, лексикология, семасиология, этимология, имя нарицательное, подход, nominativ функция, обладатель, вещь-событие, служит, экспрессивная функция, концепт.

**Key words:** onomasiology, lexical system, lexicology, semasiology, etymology, common noun, approach, nominative function, possessor, thing-event, serves, expressive function, concept.

#### **KIRISH**

Millat, elat borki, bu joyda albatta til mavjud bo'ladi. U har bir millat tomonidan qabul qilingan kishilar orasida aloqa o'rnatadigan yagona aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Til insonlarning bir-birlari bilan kundalik faoliyatida munosabat, muomala, muloqot o'rnatishlarida juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning harakatga keltirish yoki mimika yordamida odamlar o'z fikrlarini ifodalaydilar. O'z navbatida mimika, tovush, belgi ham o'z ona tilida ma'no, mazmun anglatadi va kishilar orasida tushunish munosabatlarini o'rnatadi. Shunday ekan, har bir tilning, halqning o'z ona tili orqali diniy, tarixiy madaniyatları yaratilgan bo'lib, bu kelajak avlodga shu halqning me'rosi sifatida yetkaziladi. Bu orqali til rivojlanib har bir halqni yuksaklikka intilishiga, yangi bosqichga olib chiqadi.

Xorijiy tillar O'zbekistonning jahon hamjamiatiga integrallashuvi omili sifatida qaraladigan mamlakatimizda mazkur soha rivoji davlatimiz e'tiboridan chetda qolayotgani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan „Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-1875-sonli Qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF- 5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagagi PQ-5117-son “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari; Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdaggi 610-son “Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarorlari bunga yaqqol asosdir.

## TILSHUNOSLIK

## ADABIYOTLAR TAHЛИI

Onomastika – yunoncha *onomastike* – so'zidan olingen bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi.

"Hozirgi vaqtida bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi.
2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi[1,8].

Yuqoridagi fikrga ko'ra, dunyo halqlari har bir narsaga ona tilidan kelib chiqib qo'yilgan nom hamda shu nomlarning tilshunoslikda vaqt o'tishi bilan har bir nomni rivojlanishi, halq tomonidan doimiy ishlatilishi ilmiy jihatdan onomastika yo'nalihsida o'rganib boriladi.

Demak "Onomastika" tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida shu nom orqali ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Kosmonimlardan hosil bo'lgan onomasiologik ibora, maqollar asosida til o'rganuvchilar uchun nemis va o'zbek xalqlarining madaniyati, hayoti haqida ma'lumot beruvchi ibora va maqollar yordamida hamda ilmiy tomonidan asoslab chiqilgan turli tillardagi grammatik, semantik xususiyatlari va ularning har ikkala tilda muqobilini aniqlash orqali chiqarilgan xulosalar frazeologizm, maqollar sohasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilishi, tilshunoslik nazariyasi, leksikologiya kabi fan yo'nalihsulari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarning mukammal yaratilishi hamda nemis va o'zbek tillarida ibora, maqollarning chog'ishtirma tahlli bo'yicha o'rganish, ilmiy ish olib boruvchilar uchun yangi nazariy va ilmiy ma'lumot sifatida xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Onomasiologiyada narsa va hodisalarni yoki tushunchalarni nomlash asoslari o'rganiladi; etimologiyada so'zlarning kelib chiqishi aniqlanadi; frazeologiyada tilning lug'at boyligidagi ko'chma ma'noli turg'un birikmalar-frazemalar xususida bahs yuritiladi.

Semasiologiya-so'z va iboralarning ma'nolarini o'rganuvchi soha. So'zning semantik qurilishi shu so'zga xos ma'no (ma'nolar va qo'shimcha stilistik ma'nolar)dan iborat bo'ladi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, so'zning semantik qurilishi va u bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi soha semasiologiya deyiladi. Har qanday so'z, shakl va ma'no o'z butunligiga egadir: osmon, quyosh, oy, yer, yulduz v.h.

Tildagi barcha so'zlar ma'noli bo'lsa-da, lekin ular ma'noning eng umumiyl xususiyatiga ko'ra ham o'zaro farqlanadi. Masalan, tildagi so'zlarning asosiy qismi ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi yoki harakat haqidagi tushunchani bildiradi: yulduz, yaltiroq, yoritmoq kabi.

Boshqa so'zlar esa, ya'ni yordamchi so'zlar (bilan, uchun, va, agar), shuningdek, undov va taqlid so'zlar (eh, ura, lip-lip) tushuncha ifodalamaydi. Tushuncha ifodalaydigan so'zlarga leksik ma'noga ega bo'ladi.

Demak, so'zning ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilari haqidagi ma'lumot leksik ma'no deyiladi.

Adabiyotlarda o'zbek onomastikasi (nomshunosligi) o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylanganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Nomshunoslilik bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari o'zbek onomastikasi sohasini o'rganish imkoniyatini bir qancha monografiyalar, risolalar, izohli lug'atlar, ko'p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi.

Tildagi atoqli nom (ot)larning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Masalan, qadimgi yunon olimlari Aristotel, Demokrit, Geraklitning asarlarida ham atoqli otlarning xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan edi. Jumladan, Aristotel "Poetika" asarida otni nutq bo'laklaridan biri deb hisoblaydi va unga quyidagicha ta'rif beradi: "Ot murakkab, ma'no anglatuvchi, zamonni bildirmaydigan, qismlari o'z-o'zidan ma'no anglatmaydigan so'zdir[2,41]". Eramizgacha 1-asrda yashagan Yuliy Polluks "Onomastik" nomli atoqli otlarga izoh beruvchi lug'at yaratgan. Stoiklar, jumladan, Xrisipp atoqli otlarni alohida til birligi, so'zlar guruhi deb tasnif qilgan edi.

Uyg'onish davrida va o'rta asrlarda (T.Gobbs, D.Lokk, G.Leybnits) hamda butun XIX asr davomida (D.Mill, X.Jozef va boshqalar) atoqli otlar, ularning til lug'aviy qatlamidagi o'rn

masalasiga doir munozara davom etdi. Bu sohada eng muhim masala atoqli otlar qanday ma'no bildirishini aniqlashdan iborat edi.

XVIII-XIX asrlar davomida bu muammo faqat tilshunoslar tomonidan emas, faylasuflar, mantiq olimlari tomonidan ham o'rganilgan. Bu muammoni o'rganishda yirik ingliz mantiqshunos olimi Don Stuart Mill (1806-1873) tomonidan ko'plab ilmiy asoslangan tadqiqot ishlari olib borildi. Uning fikricha, atoqli otlar ma'no bildirmaydi, ular o'ziga xos belgilar, yorliqlar sifatida predmetni bilishga, uni boshqa predmetlardan farqlashga yordam beradi. Biror predmet, kishining nomi (atoqli ot) o'sha predmet yoki shaxs tavsifi uchun to'la asos bo'lolmaydi. O'z fikrlarini rivojlantirib, D.Mill so'zlarni ikki guruhga ajratadi: a) so'z-belgilar, b) xarakterlovchi (konnotatsiyalovchi) so'zlar. Konnotatsiyalovchi so'zlar atoqli otlardan keyin vujudga kelgan[3,56-58]. Yana bir ingliz mantiqshunosi X.Jozef atoqli otlar haqida D.Millga qarama-qarshi fikrlarni bildirgan edi. Uning fikricha atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan kengroq va ko'proq ma'noga egadir. Masalan, "Palikur (kishi ismi, afsonaviy Eneyning hamrohi, yo'ldoshi) e'tibordan chetda qoldi" gapi "Inson e'tibordan chetda qoldi" gapidan ancha mazmunliroqdir.

XX asrda atoqli otlar haqidagi mantiqiy yo'nalishni mashhur ingliz faylasufi va mantiqshunosi Bertran Rassel (1872-1970) yanada rivojlantirdi. Uning fikricha, ma'lum makonda va zamonda atoqli otlar yordamida ifodalanuvchi ma'no turdosh otlarga nisbatan aniqroq, ilmiyroq xarakterga egadir. "Bu jihatdan atoqli otlar bu, o'sha, ana shu, ana bu singari ko'rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi[4,54-59]". Haqiqatdan ham atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan ma'no jihatdan aniq bo'lib, nom o'rniha ko'rsatish olmoshlar bilan ifodalash jihatdan yaqin bo'lishi mumkin.

Daniya tilshunosi Paul Kristofersen atoqli otlar bilan turdosh otlar orasidagi farqni ularning birinchisi aniq, konkret ma'noni, keyingisi esa mavhum ma'noni ifodalashida ko'radi. Atoqli otlar individning, shaxsnинг bevosita ismi, nomi bo'lsa, turdosh otlar bilvosita nomlardir. Turdosh otlar dastlab butun bir guruh, to'da nomini bildiradi, keyinchalik bu nom konkretlashadi.

Ingliz tilshunosi Alan Gardinerning "Atoqli otlar nazariyasi" (1954) nomli asari onomastika fanini yangi bosqichga ko'tardi. D.Millning atoqli otlarni ma'no yo'qligi haqidagi fikrini rivojlantirib A.Gardiner atoqli otlar o'ziga xos nomlar bo'lib, predmet, voqe-a-hodisa haqida aniq, konkret tasavvurlar yig'indisini o'zida ifoda etadi. Bu jihatdan atoqli otlar ikkiga bo'linadi: a) mujassamlanuvchi, timsol bo'la oluvchi (voploshenniy) atoqli otlar va b) mujassamlanmovchi, timsol bo'la olmovchi atoqli otlar. Masalan, Vilyam Shekspir, Temza daryosi kabi atoqli otlar mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular ma'lum bir shaxs (bu o'rinda buyuk dramaturg) va geografik obyekt (bu o'rinda daryo) haqida umumiyligi, yaxlit tasavvur beradi. Agar biz oddiygina qilib Vilyam desak, bu mujassamlovchi, kishi ismi haqida umumiyligi tasavvur beruvchi atoqli otni bildiradi. Tarixiy nuqtai nazardan mujassamlanuvchi atoqli otlar tarixi, madaniyatda juda katta o'rin tutgan mashhur shaxslar haqidagi timsollarni o'zida mujassamlashtiradi. Ota-onalar o'z bolalarini ana shunday mashhur shaxslarga o'xshashini orzu qilib qo'ygan Temur, Temurbek, Ulug'bek, Alisher, Bobur kabi antroponiimlar mujassamlanmovchi atoqli otlar sirasiga mansubdir. Chunki bu atoqli otlar avvalroq vujudga kelgan. Masalan, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi antroponiimlar bu nazariyaga ko'ra mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular mamlakatimiz davlatchiligi tarixi, madaniyatida juda katta o'rin tutgan mashhur shaxslar haqidagi timsollarni o'zida mujassamlashtiradi. Ota-onalar o'z bolalarini ana shunday mashhur shaxslarga o'xshashini orzu qilib qo'ygan Temur, Temurbek, Ulug'bek, Alisher, Bobur kabi antroponiimlar esa mujassamlovchi atoqli otlar sirasiga mansubdir.

O'z vaqtida "T.Gobbs[5,15]" tomonidan ishlab chiqilgan atoqli otlarning "mujassamlanish" xususiyati haqidagi ta'limot keyinchalik G.Leybnits[5,15]" tomonidan yanada takomillashtirilgan edi.

Nemis faylasuf olimi G.Leybnits fikricha, atoqli otlarda konkret va mavhum tafakkur elementlari ifodalangan bo'ladi. "Olimning bu fikri atoqli otlarni tilda (muloqotning belgili elementlari tizimida) va nutqda (bu elementlarning kommunikativ nuqtai nazardan qo'llanishida) olib qarash nuqtai nazaridan ahamiyatlidir[6,21-23]".

Yuqorida fikrlar, qarashlar tufayli tilshunoslikda atoqli otlarga abstrakt-mantiqiy va konkret tarixiy nuqtai nazardan yondoshuv vujudga kelishi tabiiy holdir.

"D.Mill tomonidan asoslangan atoqli otlarda hech qanday ma'no elementi yo'q, degan ilmiy qarash keyinchalik V.Bryondal, E.Boyssensom, L.Yelmslev kabi taniqli tilshunos olimlar tomonidan

## TILSHUNOSLIK

rivojlantirildi[7,63]”. Natijada ayrim olimlar, jumladan daniya tilshunosi Knud Togebyu “Atoqli otlar (jumladan, olmoshlar ham) semantik mazmunga ega bo’limganligi uchun o’zaro sinonimlardir[8,46]”.

Knud Togebyu fikriga ko’ra, atoqli otlar o’rnida qo’llanuvchi olmoshlar ma’no anglatishi bilan sinonim bo’la oladi deb aytishimiz mumkin.

B.Yo’ldoshev “O’zbek onomastikasi masalalari” o’quv-uslubiy qo’llanmasida onomastika fani atoqli nomlarni organ ob’yecklarning toifalariga ko’ra quyidagi guruh (bo’lim)larga ajratadi: antroponiya -kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqabları, taxallusları), toponimiya-geografik obyektlarning atoqli nomlari, teonimiya-turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, zoonimiya-hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, kosmonimiya-fazoviy bo'shilq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, astronomiya – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuuni o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi realionimlar (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan mifonimlar xayoliy to'qima ob'yecklarning nomlarini bildiradi. Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o'rganilish darajasiga qarab onomastika adabiy va dialektal onomastika, odatdag'i (amaliy) va poetik onomastika, zamонавија va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika kabi turlarga bo'linadi. Shulardan biri bo'lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganilishini aytib o'tgan. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asosan shaxsiy, yakka tartibda bo'lgan shaxs bir necha ismga, bir necha shaxslar esa bir umumiyligi ismga ega bo'lishi mumkin (bir xil ma’no anglatuvchi nomlar yoki o’xhash familiyadoshlar bo'lishi mumkin: Akbar Komilov, Xurshid Jamolov, Qobil Xakimov, Sarvar Olimov kabi biz tanigan yoki biz uchun umuman notanish bo'lgan boshqa shaxslar ham bor).

Bu fikrni aksi bo'lgan yondashuvlar ham bo'lib, bu atoqli otlar, so'z bo'lgani uchun xuddi turdosh otlar kabi turli xususiyatlarga egadir. “Bunday yondashuv o’z vaqtida faylasuf-stoiklar tomonidan asoslangan edi, keyinchalik XIX asrda X.Jozef, D.Mill, XX asrda O.Yespersen[9,71-72]” kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Masalan, daniya olimi O.Yespersenning ta'kidlashicha, atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan ko'proq xususiyatlarga egadir. Atoqli otlar o'zida juda ko'plab belgi xususiyatlarni konnotatsiya qiladi.

“XX asrning 60-70-yillarda taniqli rus tilshunosi A.V.Superanskaya atoqli otlarning tilshunoslikda (ayniqsa, chet el tilshunosligida) o'rganilish tarixi bilan maxsus shug'ullandi hamda «Atoqli otlarning umumiyligi nazariyasi» nomli yirik tadqiqotini e'lon qildi[10,366]”. Shundan keyin “V.A.Nikonovning “Ism va jamiyat[11,85]”, “V.A.Karpenkoning Atoqli va turdosh otlarni farqlashning nazariy asoslari” (1974), A.D.Zverevning “Atoqli va turdosh otlar haqida” (1976), I.I.Kovalikning “Ukrain tilida atoqli va turdosh otlar” (1977) nomli asarlari e'lon qilindi, “Atoqli va turdosh otlar” nomli alohida ilmiy to'plam nashr etildi (1978).

Taniqli olim A.A.Reformatskiy o'z vaqtida atoqli va turdosh otlarni quyidagicha farqlashni taklif etgan edi: atoqli otlar birinchi navbatda nominativ funksiyaga ega, ya'ni muayyan predmetlarni, narsa-hodisalarни alohida nomlash uchun xizmat qiladi, turdosh otlar esa semasiologik, ya'ni ifodalovchi funksiyani bajaradi, ya'ni ular predmet, voqeа-hodisalarни nomlash bilan birga ular haqidagi tushunchani ham bildiradi[12,5-12].

Bu muammo hozirgi kunga qadar tilshunoslarni, faylasuflarni va boshqa fan vakillarini qiziqtirib kelmoqda. Masalan, 1978 yilda Krakov shahrida o'tkazilgan XIII xalqaro Onomastik kongress “Turdosh otlar va atoqli otlar” muammosiga bag'ishlangan edi. “1984 yilda Leypsig shahrida o'tkazilgan XV xalqaro Onomastik kongress esa atoqli otlarni sotsiolingvistik yo'nalishda o'rganish muammolarini muhokama qilgan edi[13]”.

“1973 yilda til falsafasi bo‘yicha yirik mutaxassis Yevgeniy Grodzinskiyning “Atoqli otlar umumiylari nazariyasidan ocherk” nomli monografiyasi e’lon qilinadi. Bu ishda Y.Grodzinskiy atoqli otlarni quyidagi uch guruhgaga ajratadi: a) bir designatli (designat – so‘z orqali ifodalanuvchi predmet, ifodalanuvchi denotat) yoki ideal atoqli otlar; b) ko‘p designatli atoqli otlar; v) bo’sh, yoki designatga ega bolmagan atoqli otlar (mavjud bo‘lmagan predmetlar, mifologik tasavvurlarning atoqli otlari[14,87])”.

D.Mill va uning tarafdorlari tomonidan olg‘a surilgan atoqli otlarda ma’no va konnotatsiya ifodalanmasligi haqidagi nazariyaga munosabat bildirib, Y.Grodzinskiy atoqli otlar ham biror predmet, voqeа-hodisa haqida ma’no bildiradi, designatga ega bo‘ladi, degan fikrni asoslashga intiladi. Umuman olganda, tilshunoslikda atoqli otlarning umumnazariy muammolarini tadqiq etish sohasida yechimini kutayotgan muammolar juda ko‘p bo‘lib, bu esa kelgusida onomastikaga doir tadqiqotlarni yanada kuchaytirishni talab qiladi.

O‘zbek onomastikasi yoki nomshunosligi o‘tgan asrning 60-70- yillarda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida yuzaga keldi. Ayniqsa, bu sohaning antroponomika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalarida juda barakali ishlar amalga oshirildi. Masalan, o‘zbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroficha to‘plandi, to‘rtta nomzodlik dissertatsiyasi “E.Begmatov–1965[15], G’.Sattorov–1990[16], S.Rahimov–1998[17], R.Xudoyberganov–2007[18]” himoya qilindi, “E.Begmatovning “Kishi nomlari imlosi (1970), O‘zbek ismlari imlosi (1972), O‘zbek ismlari (1991), O‘zbek ismlari ma’nosи (1998; 2004; 2010), Ism chiroyi[19] (1994) nomli kitoblari nashr etildi. O‘zbek shaxs ismlari - Etimologiya, grammatika, pragmatikasi[20] bo‘yicha Z.M.Abdullaev (2021) PhD dissertasiyasini Regensburg universitetida himoya qilgan.

O‘zbek nomshunoslida mavjud bo‘lgan ishlarning aksariyatida ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotoponim va makrotoponimlar, etnonimlar tahlil qilingan, xolos.

G.N.Yagafarova o‘zining maqolasida har qanday bilim sohasi shakllanishining boshida tahlil qilinadigan elementlar va tarkibiy qismlarni tartibga solish uchun uning terminologiyasini, metatilini tizimlashtiradi. Muayyan masalani o‘rganishdagi dastlabki qadamlar, xususan, terminologiya bilan bog‘liq, chunki fanning kontseptual sohasini tartibga solish orqaligina uning mohiyatini tushuntirish mumkin.

Shuning uchun ham onomasiologiya atamalarining ko‘pligi nafaqat tilning leksik tizimini leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, so‘z yasalishi nuqtai nazaridan o‘rganuvchi tilshunos olimlarning, balki umumiylari o‘rganuvchi olimlarning asarlarida ham yoritilgan.

### NATIJA VA MUXOKAMA

Odatda fanning ma’lum bir sohasi atamalarini belgilashdagi nomuvofiqliklar uning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda onomasiologiya fan sifatida tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan, istiqbolli bo‘limlardan biri bo‘lib, u tilning o‘zining kelib chiqishini, dunyo tillarining o‘ziga xos xususiyatlarda aks etgan turli xalqlar dunyoqarashining xususiyatlarini aniqlashga yordam berib kelmoqda. Tilshunoslik tarixida onomasiologiya muammolariga antik davrlardan boshlab, qadimgi donishmandlar tilning kelib chiqishi haqidagi savolga javob topishga harakat qilganlaridayoq katta e’tibor berilgan. Aslini olganda, bu savol o‘z arsenalida gipotezalarning mustahkam bazasiga ega bo‘lgan holda hozirgacha javobsiz qolmoqda.

### XULOSA

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, zamonaviy olimlar tilni ma’lum bir xalqning dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, ular atrofidagi dunyonи ularning axloqiy tamoyillari, madaniy urchodatlari va til an’analari prizmasi orqali idrok etadigan berilgan narsa sifatida qabul qiladilar. Ikkinchisining shakllanishi birinchisining ta’siri ostida sodir bo‘ladi. Ularni o‘rganish onomasiologiya fanining asosiy predmeti hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.B.Yo‘ldoshev “O‘zbek onomastikasi masalalari” ўкув-услубий кўлланма, Samarkand 2011, 8-b.
- 2.Аристотель. Поэтика (поэзия санъати ҳақида). Русчадан М.Махмудов, У.Тўйчиевлар таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 41.
- 3.Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 56-58.
- 4.Березин Ф.М., Головин Б.Н. “Общее языкознание”. – М.: Высшая школа, 1979. – С. 21-23.
- 5.Есперсен О. Философия грамматики. – М.: 1958. – С. 63.
- 6.Roziqova G. Z. “Onomastikaning jahon tilshunoslida o‘rganilishi”, Journal of Advanced Research and Stability.-2023.-46-b

## TILSHUNOSLIK

7. Никонов В.А. "Имя и общество". – М.: 1974- С. 85.
8. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М., 1967. – С. 29-30; 57-62
9. Агеева Р.А., Бахнян К.В. Социолингвистический аспект имени собственного (К XУ Международному конгрессу по ономастике, 13-17 августа 1984 г., Лейпциг). – М.: Наука, 1984. – С. 5-12.
10. Гродзинский Евгений. Очерк общей теории имён собственных.- М.: Наука, 1973,- 87 с.
11. E.Begmatov "O'zbek tili antroponimikasi".— Avtoreferat nomzodlik dissertatsiya. Toshkent, 2022.
12. Sattorov G. H. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fan. nom. dis. avtoref Toshkent 1995
13. Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fan. nom. dis. Toshkent, 1998
14. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тиэимининг вариантдорлиги: Фил.фан.ном.... дис.автореф. Ташкент, 2008
15. G.N.Yagafarova Филология. Искусствоведение. Вып. 43. С. 172–177.
16. <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/391>